



TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI

*Egamova Dilfuza Ikramovna, Jizzax ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi, ishlab
chiqarish ta’lim ustasi*

*Burxanova Sevinch Vahob qizi, Jizzax ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi, rus tili
oqituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada to‘qimachilik sanoati korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy tendentsiyalari tahlil qilingan. Xususan, sifat menejmenti tizimlarini joriy etish, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirishning ahamiyati, xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, innovatsiyalar va iste’molchi ehtiyojlariga yo‘naltirilgan yondashuvlarning mahsulot raqobatbardoshligini oshirishdagi o‘rni ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoati, mahsulot sifati, sifatni boshqarish, raqobatbardoshlik, ISO standartlari, raqamlashtirish.

Abstract. This article analyzes modern trends in product quality management in textile industry enterprises. In particular, it highlights the implementation of quality management systems, the importance of digital technologies and automation, and the organization of production based on international standards. The role of innovations and consumer-oriented approaches in enhancing product competitiveness is also examined.

Keywords: textile industry, product quality, quality management, competitiveness, ISO standards, digitalization.

Аннотация. В данной статье проанализированы современные тенденции управления качеством продукции на предприятиях текстильной промышленности. В частности, освещены вопросы внедрения систем



менеджмента качества, значение цифровых технологий и автоматизации, а также организация производства на основе международных стандартов. Рассмотрена роль инноваций и подходов, ориентированных на потребности потребителей, в повышении конкурентоспособности продукции.

Ключевые слова: текстильная промышленность, качество продукции, управление качеством, конкурентоспособность, стандарты ISO, цифровизация.

Jahonda oxirgi 15-20 yil ichida to‘qimachilik sanoatini rivojlanishida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Iqtisodiyotning globallasuvi natijasida «to‘qimachilik ishlab chiqarish markazi Yevropa va AQSHdan «uchinchi dunyo» mamlakatlari, xususan, Janubiy-Sharqiy, Markaziy Osiyo, Janubiy Amerika davlatlariga ko‘chdi» [1].

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yillik yalpi ichki mahsulot darajasi past bo‘lgan aksariyat, rivojlanayotgan davlatlarda to‘qimachilik sanoati jadal rivojlanmoqda. Daromad darajasi o‘rtacha bo‘lgan davlatlar esa o‘zlarini, shuningdek yaqin mintaqaviy bozorlarni ham to‘qimachilik mahsulotlari bilan ta’minlamoqdalar. Rivojlangan davlatlarda texnik to‘qimadan tashqari, to‘qimachilik sanoati mahsulotlari deyarli ishlab chiqarilmaydi. Iste’mol tovarlariga bo‘lgan talab asosan, import hisobiga qondiriladi. Yevropada to‘qimachilik sho‘ba korxonalarini tashkil etish rivojlangan bo‘lib, bu holat to‘qimachilik bo‘yicha savdo balansining ko‘tarilishiga olib kelmoqda. Iqtisodiyotida xom ashyo zaxiralari katta o‘rin tutadigan mamlakatlar ham to‘qimachilik mahsulotlarini import qilmoqdalar [2].

O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatini, jumladan trikotaj, ipakshilik, tikuvchilik kabi tarmoqlarni modernizatsiyalash, eksportbop, yuqori sifatli to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarining faoliyatini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida



amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, sohani jadal rivojlantirish va diversifikatsiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, to‘qimachilikda yarim tayyor mahsulotlarni chuqur qayta ishlashga investitsiyalar hajmini va tayyor mahsulotlar eksportini oshirish” bugungi kunda to‘qimachilik korxonalari oldidagi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Respublikamiz to‘qimachilik sanoati raqobatbardoshligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida, so‘nggi yillarda boshqaruvga nisbatan jarayonli yondashuvga asoslangan sifat menejmenti tizimini joriy etish, o‘zgaruvchan bozor sharoitida eksportbop, yuqori sifatli to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini tashkil etish borasidagi ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi [2].

Xalqimizning keng iste‘mol tovarlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirishda, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta‘minlashda to‘qimachilik sanoati korxonalarining o‘rni kattadir. To‘qimachilik sanoati korxonalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, bozor talabiga mos ravishda yuqori sifatli xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ham iqtisodiy, ham tashkiliy sharoitlar mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish bozor munosabatlari sharoitida qo‘shimcha daromad manbai bo‘lib, korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, to‘qimachilik sanoati korxonalarida ish faoliyatini bugungi kun darajasida tashkil etish ham dolzarb masalalardandir [2].

To‘qimachilik sanoati respublika iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholini keng iste‘mol tovarlari bilan ta‘minlash, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlari sharoitida mahsulot sifati korxonaning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli to‘qimachilik sanoati korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.



Mahsulot sifati — iste'molchi talablarini qondirish darajasini belgilovchi muhim ko'rsatkich bo'lib, u korxonaning moliyaviy natijalari va bozor mavqeiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish orqali korxonalar qo'shimcha daromad oladi, eksport imkoniyatlarini kengaytiradi va brend nufuzini mustahkamlaydi [3]. To'qimachilik sanoatida sifatni boshqarish ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarini qamrab olishi lozim.

Xalqaro sifat menejmenti standartlarini joriy etish masalalariga xam alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy sharoitda to'qimachilik korxonalarida ISO 9001 sifat menejmenti tizimini joriy etish muhim tendentsiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu standart ishlab chiqarish jarayonlarini tizimlashtirish, nazoratni kuchaytirish va mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarish korxonalarning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda investorlar ishonchini oshiradi [4].

Mahsulot sifatini boshqarishda zamonaviy tendentsiyalarni shakllantirishda standart talablari tahlil qilinadi va sifat siyosati, maqsadlar hamda prosedura hujjatlari ishlab chiqiladi [5]. Ushbu talablar 1-jadvalda keltirilgan.

ISO 9001 standartiga asosan sifat menejmenti tizimida (SMT) ishlab chiqarishdagi jarayon osti talablar

1-jadval

№	Sifat menejmenti tizimining ishchi holati jarayonlari (4-5 bandi):	Resurslar bilan ta'minlash jarayoni (6 band):	Mahsulotning hayotiy tsikli jarayonlari (7 band):	O'lchash, tahlil qilish va yaxshilash jarayonlari (8 bandi):
1	SMT hujjatlarni boshqarish (4.2.3).	Inson resurlarini boshqarish (xodimlarni	Mahsulotning hayotiy tsikli jarayonlarini	Monitoring va o'lchashlar (8.2).



		boshqarish) (6.2).	rejalashtirish (7.1).	
2	Yozuvlarni boshqarish (4.2.4).	Infratuzilmani boshqarish (6.3)	Iste'molchilar bilan aloqador jarayonlar (7.2).	Iste'molchilarning qanoatlanganligini aniqlash (8.2.1)
3	Iste'molchilarning talablarini aniqlash (5.2).	Mahsulotga va uni boshqarishga qo'yilgan talablariga muvofiqlikka erishish uchun zaruriy ishlab chiqarish muhtini yaratish va qo'llab- quvvatlash (6.4).	Loyihalash va ishlab chiqish (7.3).	Ichki audit (tekshiruv) (8.2.2).
4	Sifat sohasidagi siyosatni ishlab chiqish va to'g'rilash (5.3)		Xarid jarayonlari (7.4)	SMT jarayonlari monitoringi va o'lchashlar (8.2.3)
5	Sifat sohasidagi maqsadlarni aniqlash va belgilash (5.3)		Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish (7.5)	Mahsulot monitoringi va o'lchashlar (8.2.4)




6	SMT yaratishni rejalashtirish va rivojlantirish (5.4.2)		Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni boshqarish (7.5.1)	Nomuvofiq mahsulotlarni boshqarish (8.3).
7	Axborotlar almashinuvini boshqarish (5.5.3)		Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini validatlash (7.5.2)	SMT natijaviyligini kelgusida oshirish uchun ma'lumotlarni tahlil qilish (8.4)
8	Korxona rahbari tomonidan SMT natijaviyligini tahlil qilish (5.6)		Identifikasiyalash va kuzatuvchanlik (7.5.3)	Doimiy yaxshilash (8.5.1)
9			Mahsulotning muvofiqligini saqlash (7.5.5)	Tuzatish harakatlari (8.5.2)
10			Monitoring va o'lchashlar uchun qurilmalarni boshqarish (7.6)	Oldini olish harakatlari (8.5.3)

Sifat standartlariga rioya qilish va jarayonlarni doimiy ravishda takomillashtirish orqali to'qimachilik korxonalari xatolarni kamaytirishi, mijozlar ehtiyojini qondirishi va bozorda raqobatdosh ustunlikka ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, yaxshi tadbiiq etilgan SMT tashkilot ichida oshkoralikni ta'minlab, samaradorlik va rentabellikni oshirishga yordam beradi. Shu sababli, to'qimachilik korxonalari iste'molchilarning tobora ortib borayotgan talablarini qondirishi va



sanoatda raqobatbardosh bo‘lib qolishi uchun kompleks sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etishga ustuvor ahamiyat berishlari kerak (1-rasm) [6]



1-rasm. To‘qimachilik korxonasining SMTni ISO 9000 talablariga muvofiqlashtirish

To‘qimachilik mahsulotlari uchun ISO 9001 sertifikat (ayniqsa ISO 9001:2015) sifat menejmenti tizimini tasdiqlaydi. U xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan jarayonda barqaror sifat, iste’molchilar ishonchini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlaydi, bu esa xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni belgilaydi. Global Textile Uzbekistan korxonasi kabi kompaniyalar ushbu standartni joriy etgan.

To‘qimachilikda ISO 9001ning asosiy afzalliklari:

Sifat kafolati: Ishlab chiqarilgan iplar, matolar va tayyor kiyim-kechaklarning xalqaro standartlarga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Barqaror jarayonlar: Ishlab chiqarishdagi xatolarni kamaytiradi va texnologik intizomni mustahkamlaydi.

Ishonch va eksport: Xalqaro hamkorlar va xaridorlar o‘rtasida ishonchni oshirib, mahsulot eksportini osonlashtiradi.

Mijoz yo‘nalganligi: Mijozlar talablarini tizimli tahlil qilish va qondirish imkonini beradi.



Shunigdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida sifatni boshqarish jarayonida avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari, sensor texnologiyalar va axborot tizimlaridan foydalanish kengayib bormoqda. Ushbu texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish, nuqsonlarni erta aniqlash va inson omili ta'sirini kamaytirishga imkon beradi [7]. Natijada ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifati sezilarli darajada oshadi.

Oxirgi davrlarda to'qimachilik sanoatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish mahsulot sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Zamonaviy uskunalar, yangi turdagi xomashyo va materiallardan foydalanish, shuningdek, ilmiy-texnik yutuqlar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish mahsulotning fizik va ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilaydi [8].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, to'qimachilik sanoati korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari standartlashtirish, raqamlashtirish, innovatsion rivojlanish va ISO standartlariga muvoqlikni xisobga olish bilan uzviy bog'liqdir. Sifatni boshqarishga kompleks yondashuv korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash va milliy iqtisodiyot rivojiga hissa qo'shishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. **www.oecd.org**
2. Xankeldieva G. Sh., Shakirova Yu. S. To'qimachilik sanoati korxonalarida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish. Monografiya. Farg'ona: AlFerganus, 2021. – 158 b.
3. Jo'rayev A.J. Mahsulot sifatini boshqarish asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
4. ISO 9001:2015. Sifat menejmenti tizimlari – Talablar.
5. F. Muhammadjonov, & B.R.Xamdamov. (2025). To'qimachilik



korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari. *Tadqiqotlar*, 61(1), 187-195. <https://scientific-jl.com/tad/article/view/10527>

6. Vasiyev X. U. To'qimachilik korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish tizimini standartlashtirish talablari asosida takomillashtirish. Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.

7. Karimov B.B. Sanoatda raqamli texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

8. Smith J. Textile Innovation and Quality Management. – London: Elsevier, 2019.